



BIOLOGIYA SOHASIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR

Sobitxonov Javohir Zunnurxon o'g'li¹

Biotexnologiya fakulteti Biologiya yo'nalishi
4-bosqich talabasi javohiruzbekistan8@gmail.com

99 656 08 11

Imomov Otabek²

Ilmiy rahbar: Phd

¹⁻²Namangan davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7010266>

ARTICLE INFO

Received: 01st August 2022

Accepted: 03rd August 2022

Online: 05th August 2022

KEY WORDS

hayotning yaralishi, insonni
paydo bo'lishi, bosh miya
,hayvonni paydo bo'lishi,
xotira va bilish
qonuniyatlari, o'simlik
kasalliklarini oldini olish.

ABSTRACT

Bu maqolada biologiya sohasida o'z yechimini topmagan ma'lumotlar yoritib berilgan.

Biologiya sohasidagi dolzarb muammolar Biologiya fanida hali o'z yechimini topmagan bir qancha muammolar mavjud. Ulardan hayotning paydo bo'lishi, hayvonning paydo bo'lishi genetik axborot xotira va bilish qonuniyatlari, oziq-ovqat tanqisligi, havoning ifloslanishi shular kabilardir.

Turli olimlarning gipotezasiga ko'ra hayotning yaralishi birinchi navbatda suvda aminokislotalarning rivojlanishi tufayli avtotrof va getertrof organizmlar rivojlangan.

Hayotning paydo bo'lishi

Tirik organizmlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi to'g'risidagi qarashlar majmui. Hayotning paydo bo'lishi to'g'risida xar hil fikrlar mavjud. Ilohiy kitoblarda tirik jonzotlarni muayyan makon va zamonda ma'lum reja asosida oliy Yaratuvchi tomonidan yaratilganligi ta'kidlanadi.

Qur'onda dunyo 6 kunda yaratilganligi yozilgan.

Irlandiyalik arxiyepis-kop Asher dunyo miloddan avvalgi 4004- yil oktabrda yaratilganini hisoblab chiqqan. Kreationsizm ta'limotiga asosan hayot g'ayritabiiy hodisa natijasida bir marta paydo bo'lgan va shundan bureationsizm ta'limotiga asosan hayot g'ayritabiiy hodisa natijasida bir marta paydo bo'lgan va shundan buyon o'zgarmasdan qolgan. Qadimiy Xitoy, Rim, Bobilda paydo bo'lgan nazariyalargas binoan hayot tabiatda o'z-o'zidan paydo bo'lgan. Yunon faylasufi Empedokl (mil.avv.490-430 yil) tiriklik havo, tuproq, olov va suvdan tashkil topgan. Demokrit (mil.avv.460-370 yil) hayot loyodan ,Fales (mil.avv.625-547 yil)o'simlik va hayvonlar balchiqdan paydo bo'lgan, degan fikr bildirishgan. Aristotel fikricha moddaning muayyan zarrachasi



“hayotiy kuch”ga ega, bu kuch qulay muhitda tirik organizmni paydo qiladi. Van Genmolt (1577-1644) iflos kiyim, qorong’u shkaf va bug’doy donidan 3 hafta davomida sichqon paydo bo’lganligini yozadi.

Ammo Italiya vrachi va biolog Franchesko Redi og’zi yopilgan idishda saqlangan go’shtda pashshalar paydo bo’lmasligini isbot qiladi. Biroz vaqt o’tgach Lui Paster (1860) tajriba orqali “G” shaklidagi egilgan nay ulangan kolbada qaynatilgan go’shtning aynimasligini isbot qildi.

Insonning paydo bo’lishi

Inson Homo sapiens (lot.ongli odam) sut emizuvchilar sinfining Hominidae oilasiga mansub primat turidir. Odamlar abstrakt fikrlash, nutq, introspeksiya qobiliyatli yuksak rivojlangan miyaga egadir. Bunday miya bilan odamlar mehnat qurollari ishlatishni o’rganib, boshqa tur hayvonlardan ilg’orlashib ketdilar. Odam ijtimoiy mehnat asosida shakllangan tafakkur va nutqqa ega bo’lishi, mehnat qurollari yasashi va atrof muhitga faol ta’sir ko’rsata olishi bilan boshqa tirik mavjudotlardan farq qiladi. Odamni antropologiya fani o’rganadi. Aslida insonni Allox taollo tuproqdan yaratgan Hayotni ham Allox yaratgan, va o’ziga itoat yani ibodat qilishni buyurgan. Barcha narsalarni Allox o’zi yaratgan.

Inson xotirasi

Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar mavjud bo’ladi. Shu jarayonlarning har biri alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va o’sha faoliyat bilan belgilanadi. Muayyan bir materialni esda olib qolish hayot faoliyati jarayonida individual tajriba orttirishga bo’liqdir. Esda olib qolingani keyinchalik faoliyatda qo’llanish uchun uni

esga tushirish taqozo etiladi. Hozirgi kunda xotiraning mexanizmlari va qonuniyatlarini o’rganish bo’yicha uchta nazariya mavjuddir. Bular psixologik, neyrofiziologik hamda biokimyoviy nazariyalardir.

Inson xotirasining hajmi qancha?

Ko’pchilikka ma’lumki, odamlar o’z miyasi imkoniyatlaridan to’liq foydalanmaydi. 10 foizli imkoniyatlar haqida gapirmayman, biroq shunisi aniqki, miyaning imkoniyatlari tasavvurga sig’ishi qiyin. “Hi-News” olimlari tomonidan miyaga qancha ma’lumot sig’ishi mumkinligi borasida olib borilgan tadqiqot natijalari bilan bo’lishdi.

Solka biologik tadqiqotlar instituti olimlarining so’nngi ma’lumotlariga ko’ra, inson miyasi hajmi bunga qadar aniqlangan natijalardan 10 barobarga ko’p ekan. Aniq raqamlarni keltiradigan bo’lsak, gap bir peta bayt (1000 terabayt) haqida ketmoqda. Bir-ikki yil oldin butun internet hajmi shunchaga teng deya baholangandi.

Inson miyasi hajmini aniqlash uchun olimlar kalamushning gippokamp to’qimasini 3D tahlil yordamida o’rgandi. Jarayonda ma’lum bo’lishicha, miya sinapslari o’z o’lchamini o’zgartirishi mumkin, bu esa xotira hajmiga ta’sir ko’rsatadi. Bundan tashqari barcha holatlarning 10 foizida sinapslardan nusxa ko’chirilgan.

Hayvonning paydo bo’lishi

Hayvonot dunayvonot dunyosi –organik olam sistemasidagi yirik bo’limlaridan biri Hayvonlarning bundan 1-1,5 mlrd yil ilgari okean suvida mikroskopik xlorofillsiz, amyobasimon xivchinlilar shaklida paydo bo’lganligi taxmin qilinadi. Hayvonning eng qadimiy qazilma qoldiqlari qoldiqlari yoshi 0,8 mlrd yildan oshmaydi. Ko’p hujayrali hayvonlar-bo’shliqchililar, chuvalchanglar, tuban bo’g’imoyoqlilar dastlabki qoldiqlari



so'nggi kembrio'p hujayrali hayvonlar-bo'shliqchililar, chuvalchanglar, tuban bo'g'imoyoqlilar dastlabki qoldiqlari so'nggi kembriy qatlamlaridan boshlab, (mil.avv. 690-570mln yil) uchraydi. Kembriy davri boshlarida (mil.avv570-490mln.yil)tashqi mineral skeletli dengiz umurtqasizlarining ko'pchilik guruhlari rivojlangan. Vanihoyat bo'r davrining oxirlariga kelib (136-66 mln yil avv.) ko'pchilik dengiz umurtqasizlari, dengiz va quruqlikda yashovchi sudralib yuruvchilar , shu jumladan dinozavrlar qirilib ketadi, ular o'rnini qushlar va sut emizuvchilar egallaydi. Hozirgi kunda o'zimizdan misol qilib aytaman O'zbekiston hududida hayvonlar soni kamayib ketyapti. Xatto "Qizil kitob"ga kiritilgan turlari bor Ulardan bittasi Turkiston ohusi ham bor. Kamayib ketayotgan turlarning eng ko'pi qushlar hisoblanadi

. Bularning oldini olish uchun maxsus bog' va qo'riqxonalar qilib, ba'zi turlarning qirilib ketishini oldini olish lozim.

O'simlik kasalliklarini oldini olish

O'simlik kasalliklarining 30 mingdan ortiq turi bor. O'simlik kasalliklari- o'simliklarda turli sabablar -kasallik qo'zg'atuvchilar hamda noqula'simlik kasalliklari-o'simliklarda turli sabablar -kasallik qo'zg'atuvchilar hamda noqulay tashqi sharoit ta'sirida yuz beradigan patologik jarayonlar. Bular organizm funksiyasi (fotosintez,nafas olish, o'stiruvchi moddalar sintezi , suv, oziq moddalar

harakat)ning buzilishiga, o'simlik butunlay nobud bo'lishi yoki ba'zi organlarining zararlanishiga olib keladi O'simlik kasalliklari hosilini,sifatini buzadi. Paxtani zararlovchi kasalliklar mas, vilt, va h.k. Oldini olish tadbirlari ekinlarning o'sishi va rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratish, kasalliklarga chidamli navlarni ekish, ilmildini olish tadbirlari ekinlarning o'sishi va rivojlanishi uchun yaxshi sharoit yaratish, kasalliklarga chidamli navlarni ekish, ilmiy asoslangan urug'chilik, urug'likni dorilash va va h.k. dan iborat. Davolashda turli kimavolashda turli kimyoviy preparatlar (insektitsidlar, fungitsidlar, fumigantlar)dan foydalaniladi. O'simlik kasalliklari qo'zg'atuvchilarining bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga o'tmasligi uchun karantin qo'llaniladi.

Xulosa

Biologiya sohasini rivojlanishi uchun uning oldidagi kattayu kichik muammolarini jadal yechish lozim Hali yechilmagan muammolar juda ko'p. Men bir biolog sifatida qo'ldan kelganicha shu maqolamni ommaga chiqarishni lozim topdim. Izlanishda davom etgan holda genetik kod va genetik axborot irsiyat to'g'risida izlanish olib boraman. Hozircha hayotning paozircha hayotning paydo bo'lishi, insonni paydo bo'lishi ,hayvonni paydo bo'lishi, va o'simlik kasalliklarini oldini olishni ilmiy rahbarim bilan oz bo'lsada o'rgandim. Allox nasib qilsa kelajakda biologiyani yuksak cho'qqilarga olib chiqaman.

References:

1. Ibrohim Abdullayev "Biologiyaning dolzarb muammolari"
2. To'raqulov "Biologiya asoslari"
3. Wikipedia.org.
4. Fyllar. org.
5. Xabar. uz
6. Wikiwand. com



7. Wikipedia.org